


2019 yil yanvar oyida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 542,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,0 % ni tashkil etdi.


Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasida 12,4 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 64,6 % ni tashkil etadi.

2019 yil 1 fevral holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), %



2019 yil yanvar oida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 92,7 mlrd. so'mga oshdi.

Ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (27,1 mlrd.so'mga), transport xizmatlari (15,0 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (27,5 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (0,6 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

2019 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	542,0	111,0
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	28,9	101,2
moliyaviy xizmatlar	69,8	161,8
transport xizmatlari	134,8	104,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	123,8	100,9
yashash va ovqatlanish xizmatlari	23,9	106,9
savdo xizmatlari	181,3	105,1
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	14,9	100,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	18,5	163,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	10,9	100,3
ijara xizmatlari	15,0	101,1
kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	12,3	105,1
shaxsiy xizmatlar	12,0	102,7
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	5,8	112,3
boshqa xizmatlar	13,9	101,2

Eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lim sohasidagi xizmatlar (127,6 %) moliyaviy xizmatlar (163,8 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (161,8 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (106,9 %), savdo va kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (105,1 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.


2019 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ijara xizmatlari (100,2 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (100,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (101,2 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismini savdo xizmatlari tashkil etadi. 2019 yil yanvar oyida uning ulushi 33,4 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (24,9 %), moliyaviy xizmatlar (12,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,3 %) egallaydi.

**2019 yil yanvar oyida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi**



2019 yil yanvar oyida savdo xizmatlari hajmi 181,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 33,4 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 154,2 mlrd. so'mga oshdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 82,2 % ni tashkil etadi.

2019 yil yanvar oyida savdo xizmatlari tarkibi, %



Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 11,5 % ga yetdi.


Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 6,3 % ni egallaydi.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019 yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi 69,8 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 161,8 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (91,6 %) katta salmoqqa egadir.

2019 yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 23,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati 21,3 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 4,4 % ga yetdi.

2019 yil yanvar oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 88,0 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 12,0 % ga to'g'ri keladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-83-12

71-230-83-13